

FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING MATNLARDA NAMOYON BO'LISHI

E. Xushvaqtova¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada frazeologik birliklarning matnlarda namoyon bo'lishi, yozuvchilarning o'z ijodida frazalarni qo'llashi hamda frazeologik birliklarning o'zbek va xitoy tillaridagi ko'rinishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik tasnif, lug'at tarkibi, yozuvchi uslubi, xitoy va o'zbek tilidagi frazalar.

doi: <https://doi.org/10.2024/sw1t9251>

Kirish

Tilshunoslik bo'limlaridan biri frazeologiya bo'lib, bu bo'limda tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazema ko'chma ma'noli turg'un birikmadir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

Frazeologik birliklar eng ko'p badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda qo'llaniladi. Badiiy matnlarda frazeologizmlarning tutgan o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, mualliflar frazeologik birliklardan badiiy matnlarda turli maqsadlarda foydalanishadi. Voqea-hodisani obrazli ifodalash uchun: ko'pgina frazeologik birliklar aniq, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs-predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo'ladi. Masalan: og'zi qulog'ida, sochi tikka bo'ldi, boshi ko'kka yetmoq, tili uzun kabilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Iboralarda mubolag'a va o'xshatish kabi vositalardan foydalanish uning obrazlilikini, ta'sirchanligini oshiradi. Masalan: 1. Hamma narsani miridan sirigacha qoldirmay gaplashdik. (H.Nazir) 2. Sirkasi suv ko'tarmas dadasining bunchalik "oliyanoblik" qilishi juda g'alati edi (Shuhrat).

So'zlar tovushlardan tarkib topganidek, frazemalar ham so'zlardan tarkib topgan, quyida ularning ayrimlariga misollar keltiramiz:

1. Anqoning urug'I - kamyob narsa,
2. Ko'ngli sovumoq - avvalgi yaxshi munosabati yo'q bo'ldi,
3. Qorasi o'chdi - uzoqlashib ko'rinmay ketti,
4. Turgan gap - aniq, shak-shubhasiz,
5. Qon yutdi - ich-ichidan kuchli darajada ruhan azoblandi.

Frazeologiyalar badiiy matnga estetika, zavq beradi. Kitobxon asarni o'qish jarayonida frazeologizmlardan o'ziga turli emotsiyalar oladi. Yozuvchi asarlarida qanchalik ko'p frazeologizmlardan foydalansa, uning asarlarining ham qiymati shunchalik oshadi. Shu bilan birga, asarning ta'sirchanligi ham ortadi. Frazeologik birliklarni matn tarkibida qo'llash anchayin murakkab. Bu birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy ma'nolar mavjud bo'ladi. Har bir yozuvchining frazeologizmlardan foydalanish uslubi har xil

¹ Xushvaqtova E'tibor, Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti 2-kurs talabasi

bo'ladi. Oybekning "Bolalik", hamda Odil Yoqubovning "Diyonat" asarlarida qo'llanilgan frazeologik birliklarni o'rganish orqali yozuvchilarning o'ziga xos bo'lgan uslublarini bilish mumkin.

Muhokama va natijalar. Shuningdek, yana bir frazeologik birlikni olaylik. Almisodan qolgan, ushbu birlikning ma'nosi: juda eski, qadimgi; Ko'hna uyning to'kilib turgan ayvonida ikki chol-qadim do'stlar, odatdagiday, bitmas-tuganmas suhbatlarga kirishib ketadi.

Fig'oni to'g'oni buzilgan: varianti: a) ruhan ortiq darajada bo'g'ilib, b) oh-voh qildi; Endi onamning fig'oni to'g'oni buzilgan daryoday ko'pira boshlaganda, otam darrov kesib tashlaydi.

Ko'z yugurtirmoq: sinonimi: tez va yuzaki qaramoq; Har o'tganimda lahzagina to'xtab, minoraning tagidan boshiga qadar bir ko'z yugurtiyan.

Xuddi shunday frazalar singari Xitoy tilida ham o'zining madaniyatini, tilini namoyon qiladigan maqollari mavjud. Har qanday frazeologizm o'sha xalqning turmush sharoiti, udumlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Frazelozizmlarning kelib chiqish omillari ham har bir xalqning o'z mentalitetiga xos hisoblanadi. Ularga misol qilib quyidagilarni keltiramiz:

1. 不入虎穴，焉得虎子-bu ru hu xue, yan de hu zi - Bu ibora o'zbek tilidagi "O'ychi o'yini o'ylaguncha, Tavakkalchi ishini bitiradi" maqolning ma'nosiga ekvivalent bo'la oladi. Ya'ni yuz marta o'ylab ham o'ylagan ishiga qo'l urolmagandan ko'ra tavakkal boshlab, marralarga erishgan afzaldir.

2. 成也萧何，败也萧何- cheng ye xiao he, bai ye xiao he- o'zimizdagi "Yaxshi gap ham yomon gap ham, Bir og'izdan chiqadi" ma'nosidagi iboraga mos keladi. Demak, yaxshi gapni ko'proq aytish atrofimizdagi insonlarda biz haqimizdagi fikrlari iliq bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Hamda o'zimizning ham kayfiyatimiz doim chog' bo'lib yurishini ta'minlaydi.

3. 成家立业- cheng jia li ye -Ahillik bilan boshlangan har bir ish omadli keladi deb tarjima qilinib, bu barqaror birikma o'zbek tilidagi " Ahil oila bo'lsa, Omad o'z oyog'i bilan kelar" iborasiga ekvivalent bo'ladi.

Xulosa. Frazelozik birikmalarni o'zbek va xitoy tillarida qiyosiy o'rganish madaniyatlarimiz, qadriyatlarimizni o'zga xalq madiyati, urf-odatlarini o'rganish bilan chog'ishtirish, uni yana yuksak pog'onalarga ko'tarishimizni anglatadi. Frazelozizmlar so'zlovhi nutqini kuchli emotsiyaga boy va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydigan birlik hisoblanadi. Frazelozik iboralardan foydali va unumli foydalanish natijasida madaniyat doirasidan chiqmagan holda tilimizdagi so'zlarni qolipida, noziklashtirib ifodalagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Yo'ldoshev B. *Frazelozik uslubiyat asoslari*, - Samarqand, 1998
- [2]. Oybek. *"Bolalik xotiralarim"*, "Yangi asr avlodi", 2019.
- [3]. Odil Yoqubov. *"Diyonat"*, "Ilm-ziyo zakovat", 2021.